

**MAHORATLI O'ZBEK REJISSYORI OLIMJON SALIMOV SAHNASIDA
XORIJIY ASARLAR TALQINI****Qodirova Feruzaxon Farxod qizi***O'zDSMI Teatrshunos, san'atshunos, pedagog-tadqiqotchi*feruzaxonqodirova99@gmail.com

Tel: +998996014035

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston san'at arbobi, o'zbek taetrining mahoratli va tajribali rejissyori Olimjon Salimovning to'liq ijodiy faoliyati davomida sahnalashtirgan barcha xorijiy asarlar va ulardan bir nechtasining qisqacha talqini haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek teatri, xorijiy asarlar, avangard asar, komediya del-arte, mezansena, talqin.

Аннотация. В данной статье рассматривается творческая деятельность заслуженного деятеля искусства Узбекистана, талантливого и опытного режиссёра Олимжона Салимова. Анализируются все зарубежные произведения, поставленные им на протяжении всей карьеры, а также приводятся краткие интерпретации некоторых из них.

Ключевые слова: узбекский театр, зарубежные произведения, авангардное произведение, комедия дель арте, мизансцена, интерпретация.

Annotation. This article explores the creative career of Olimjon Salimov, Honored Art Worker of Uzbekistan and one of the most skilled and experienced directors of the Uzbek theatre. It examines all foreign plays staged by him throughout his career and provides brief interpretations of several of them.

Keywords: Uzbek theatre, foreign plays, avant-garde work, commedia dell'arte, mise-en-scene, interpretation.

Sahna – muqaddas dargoh. Bu dargohning chinakam xazinaboni va ruhini tushunuvchi san'atkorlardan biri, shubhasiz, o'zbek teatrining yorqin vakili, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Salimovdir. Uzoq yillar davomida teatr olamida faoliyat yuritib, 80 dan ortiq spektakllarni muvaffaqiyatli sahnalashtirgan ustoz rejissyorning ijodi – chinakam teatr ensiklopediyasidir. Uning ijodiy faoliyati o'zbek dramaturgiyasi yorqin na'munalaridan tortib, jahonning durdona asarlarini ham qamrab oladi.

Olimjon Salimov ijodida chegaralarni yengib o'tishga intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. U o'zining sermahsul faoliyati davomida dunyo dramaturgiyasining eng sara namunalari o'zbek sahnasiga olib chiqdi va ularni O'rta Osiyo teatr maktabining o'ziga xos timsoliga

aylantirdi. Uning talqinidagi Uilyam Shekspirning “Romeo va Juletta” fojiasi, Karlo Gotssining “Ikki mo‘jiza” asaridagi sehrli olam, Molyerning zaharxanda komediyalari yoki Fernando Arrabbalning “Pik-nik” kabi avangard asarlari – barchasi o‘zbek tomoshabiniga manzur bo‘ldi. Bu spektakllarda rejissyor nafaqat g‘oyaviy teranlikka, balki jahon asarlarining umuminsoniy muammolarini milliy kolorit va yorqin xalqchilik bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

Rejissyor xorijiy asarlarni sahnalashtirishdagi ilk qadamlarini 1983-yil rus dramaturgi A.Vampilov qalamiga mansub “Bir xonada qo‘sh hangoma” diplom spektaklini sahnalashtirish bilan boshlagan.

1984-yil Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatrida rejissyor sifatida ish boshlaganing ilk kunlaridanoq qirg‘iz adabiyotining eng iste‘dotli va jahonga tanilgan namoyondalaridan biri Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” nomli qissasini o‘zbek teatri sahnasiga olib chiqdi. Spektakl kutilganidanda ko‘proq muvaffaqiyat qozondi.

Mustaqillik yillaridan boshlab rejissyorning asosiy ijodiy faoliyati poytaxt teatrlari bilan bevosita bog‘landi va rejissyorning jahon dramaturgiyasiga bo‘lgan qiziqishi yanada ortdi. 1994-yildan Abror Hidoyatov nomidagi o‘zbek davlat drama teatrida Aziz Nesinning “Met, biror narsa qilsangchi” pyesasi asosida “Lomakon” nomli spektaklni sahnalashtirdi.

1995-yil Y.Oxunboboyev nomidagi Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida fransuz ijodkori Jan-Batist Molyer asari asosida Sharof Boshbekov talqin qilgan “Uchar tabib” spektakli Olimjon Salimov rejissurasidagi G‘arb mumtoz dramaturgiyasiga bo‘lgan murojaat yo‘lini ochib berdi. Asar tomoshabinlarga ham, teatr mutaxassislariga ham birdek manzur keldi. Natijada spektakl 1996-yil Toshkentda o‘tkazilgan “Bahor chorrahalarida” xalqaro teatr festivali va 1999-yilda Qarshi shahrida o‘tkazilgan “Mualliflik spektakllari” xalqaro (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Germaniya) teatrlari festivallarining qatnashchisi bo‘ldi. Shundan so‘ng rejissyor 1997-yil Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatrida “Parijga sayohat” (J.B.Molyer asari asosida Sh.Boshbekov talqini) spektaklini sahnalashtirdi. Ushbu sahna asari 2001-yil Misr Arab Respublikasi Qohira shahrida o‘tkazilgan xalqaro eksperimental teatrlar festivalining qatnashchisi bo‘ldi.

Olimjon Salimovning yangi asrdagi ijodiy faoliyati xorijiy asarlarni muvaffaqiyatli sahnalashtirish bilan boshlandi. Rejissyor Germaniyaning Nyurnberg shahrida joylashgan “MUMPEC” teatrida Katrin Bloshning “Eshik ortida” pyesasi asosida “Qumdagi ikki masxaraboz” spektaklini sahnalashtirdi. Spektakl premyerasi 2001 -yil 18-iyunda bo‘lib o‘tdi.

2002-yilda Yo‘ldosh Oxunboboyev nomidagi Respublika yosh tomoshabinlar teatri sahnasida namoyish etilgan yapon yozuvchisi Dzunzi Kinoshitaning “Turna patlari” dramasi Olimjon Salimov rejissyorlik mahoratini yangi bosqichga ko‘tarilganini isbotladi. Spektakl noan‘anaviy sahna talqini bilan tomoshabinlarni maftun etdi.

“Agar yer yuzida karomat, mo‘jiza degan narsa bo‘lsa, siz uni sokin sahnalardagi daqiqalarda ko‘rishingiz mumkin” – deydi N.Boltaboyeva “Turna patlarini ko‘rib...” nomli maqoasida. – “Yo‘ldosh Oxunboboyev nomidagi Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida namoyish etilgan “Turna patlari” spektaklini tomosha qilib qaytarkanman, sahnaga berilgan shu ta‘rif qanchalar haqiqat ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Negaki, bu spektakl orqali chin ma‘nodagi mo‘jizalarga guvoh bo‘ldim.”⁹⁰

Darhaqiqat, spektakl turli yoshdagi tomoshabinlarga mo‘ljallangan bo‘lib, tomoshada yomonlik va yaxshilik, ochko‘zlik va vafo, hasislik va sadoqat o‘rtasidagi kurash orqali inson tabiatining ichki ziddiyatlari ochib beriladi.

Rejissyor sodda ertak mazmunini badiiy-falsafiy ma‘noda boyitib, sahnada sehrli va ta‘sirchan muhit yaratgan. Uning talqinida hayotiylik va afsonaviylik o‘rtasidagi nozik chegara yorqin ifodalangan. Yaralangan turnani qutqarib qolgan dehqon Yohyo va qushdan ayolga aylangan Su haqidagi voqea insonning ochko‘zligi va ahdga sodiqlikni bilmaslik oqibatida baxtdan ayrilishi fojiasi sifatida tasvirlangan.

Salimov sahnaviy vositalarda ramz va plastika imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Oq mato sahna bo‘ylab turlicha shakllarda – goh bulut, goh qor, goh uy, goh to‘qish joyi sifatida harakatlanib, voqealar oqimini uzluksiz bog‘lab turadi. Nihoyatda ta‘sirli yakunda ushbu oq mato osmonga parvoz qiluvchi turnaning o‘ziga aylanadi, bu esa spektaklning eng kuchli badiiy timsolidir.

Bosh qahramon Su rolidagi Zebo Navro‘zova o‘zining nafis plastika va pantomima harakatlari orqali qushning tabiati va ayollikka xos noziklikni birlashtirib, obrazni jonli ifodalagan. Sahnalashtiruvchi rassom Mariya Ivanian va xoreograf Liliya Sebastyanovanning ishlari ham spektakl badiiy tuzilishining yaxlitligini ta‘minlagan. Ammo bu mo‘jizaviy tomoshani yagona yaxlit san‘at asariga aylantirgan narsa rejissyor Olimjon Salimovning fantaziya va tuyg‘uga boy sahnaviy talqinidir.

Spektakl O‘zbekiston teatrlari “SARHISOB-2002” festivali qatnashchisi bo‘ldi va sahnalashtiruchi rassom Marina Ivanyan festivalning “Eng yaxshi liboslar rassomi” nominatsiyasi g‘olibiga aylandi. Keyinroq spektakl Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo, Eron va Hindiston mamlakatlari teatrlarining “NAVRO‘Z-

⁹⁰ Boltaboyeva N. “Turna patlariniko‘rib...”. Teatrjurnali. 2002/3/29-bet.

2003” Xalqaro teatr festivali g‘olibi bo‘ldi. Misir Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida o‘tkazilgan Xalqaro eksperimental teatrlar festivalida ham ishtirok etdi.

Rejissyor tomonidan “Turna patlari” bilan parallel sahnalashtirilgan Karlo Gozzining “Qirol Bug‘i” pyesasi asosidagi “Ikki mo‘jiza” spektakli Toshkentda o‘tkazilgan “XUMO–2003” Yoshlar va bolalar teatrlarining Xalqaro teatr festivalida tomoshabinlar tomonidan munosib qarshi olindi.

Spektakl Italiya elchixonasi tashabbusi bilan Respublika yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirildi. Rejissyor Gozzining murakkab, ertaknamo syujetini sahnada yengil, tomoshabop shaklda ifodalashga erishgan. U asarni “qayg‘uli kulgi” janrida talqin etib, zolimlik va muhabbat, hokimiyat va sadoqat o‘rtasidagi to‘qnashuvni asosiy g‘oya sifatida ilgari surgan. Spektakl ohirida ezgulik va sevgi g‘alaba qilishi an‘anaviy ertak ruhini saqlagan holda, zamonaviy teatr tili bilan ifodalangan.

Asarning sahnaviy yechimlari, mizansena va harakat plastikasidagi yengillik spektaklning asosiy kuchi hisoblanadi. Rang-barang matolar, yorqin dekorativ elementlar, raqs va niqobli sahnalar orqali “ko‘cha teatri” (komedia del-arte) estetikasiga xos harakatchanlik hosil qilingan.

Rassomlar N.Glubokina va F.Gazizova bilan hamkorlikda yaratilgan ikki tomonlama niqoblar – aktyorlarning quvnoq va g‘amgin kayfiyatini bir paytda ko‘rsatish uchun berilgan original topilmadir. Bu usul tomoshabinda ikkiyuzlamachi jamiyat va inson tabiatidagi ziddiyatlarni ramziy his qilish imkonini beradi.

Aktyorlar ijrosi – spektaklning muvaffaqiyat omili desak mubolag‘a bo‘lmaydi. F.Aminov (Tartalya) obrazni makkor, shu bilan birga zaif inson sifatida chuqur ochib bergan. Z.Yo‘ldosheva (Anjela) esa sadoqatli, jasoratli ayol qiyofasini nafislik bilan yaratgan. Truffaldino rolidagi M. Abdulhairov esa xalqona komik xarakterni jonli tarzda gavdalandirgan.

Umuman, “Ikki mo‘jiza” spektakli O.Salimov rejissyorligining o‘ziga xos uslubini, italyan “del-arte” teatrining unsurlarini o‘zbek sahnasiga uyg‘unlashtirishdagi ijodiy yondashuvini namoyon etgan. Ushbu asar yosh tomoshabinlar teatrining ijodiy doirasini kengaytirib, xalqaro dramaturgiyani milliy sahna tilida ifodalashning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qilgan.

Olimjon Salimovning XXI asr boshlaridagi xorijiy dramaturgiyaga qilgan murojaatlarining eng muhim namunalaridan biri 2003-yilda sahnalashtirilgan ispaniyalik dramaturg Fernando Arabbalning “Dala sayli” (“Pik-nik”) asari bo‘ldi. Absurd teatrining ushbu yorqin namunasini o‘zbek sahnasiga olib chiqish orqali rejissyor urush va zo‘ravonlikning bema‘ni mohiyatini oddiy insoniy munosabatlar fonida g‘ayrioddiy va keskin uslubda ochib berdi. Spektakl, O.Salimovning ijodiy uslubidagi yangilikka intilishni,

an'anaviy sahna chegaralarini kengaytirishga bo'lgan dadil harakatini va xorijiy asarlarni milliylik ruhiga singdira olish mahoratini namoyish etdi. Spektakl Markaziy Osiyo Mamlakatlaridan – Qirg'izistonning Bobur nomidagi O'sh viloyat teatri, Tojikistonning K.Xo'jandiy nomidagi Xo'jand teatri va Qozog'istonning J.Shonin nomidagi Chimkent teatri hamkorligida sahnalashtirilgan. Spektakl avval Toshkentda "Respublika yosh tomoshabinlar teatri"da, so'ng qo'shni davlat teatrlarida namoyish etilgan.

2004-yil Olmaota shahrida joylashgan M.Auezov nomidagi Qozog'iston Davlat Akademik drama teatrida Tog'ay Murod asari asosida sahnalashtirilgan "At jlyag'an tun" ("Ot yig'lagan tun") spektakli Olimjon Salimovning o'zbek teatr sahnasidagi, balki, xalqaro teatr maydonidagi mahoratli rejissyorlardan ekanini ko'rsatib berdi.

2006-yil Olimjon Salimov ijodiy faoliyatida sermahsul yil bo'ldi. U Respublika yosh tomoshabinlar teatri rejissyori sifatida bir qancha milliy asarlar bilan bir qatorda Molyer asarlari asosida "Alixo'ja Xo'jaali" spektakli hamda M.Auezov nomidagi Qozog'iston Davlat Akademik drama teatrida Uilyam Shekspirning "Romeo va Julyetta" asarlarini o'ziga xos talqinda sahnalashtirdi.

"Spektaklni O'zbekistonlik rejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston Davlat mukofoti laureati Olimjon Salimov sahnalashtirgan. Bu rejissyorning Qozog'istonda juda yaxshi bilishadi. U to'rt yil oldin aynan shu teatr sahnasida Olmaotaliklarga juda manzur bo'lgan "Ot yig'lagan kecha" spektaklini sahnalashtirgan edi. Rejissyor yana bir bor ushbu teatrning yosh aktyorlari, ularning qilichbozlik, plastik jo'shqin mahoratlarini, tajribali aktyorlar imkoniyatlari bilan mujassamlashtirib yaxshi natijaga erishgan." – deyiladi Qozog'iston Respublika haftalik gazetalarning birida.⁹¹

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo teatrlari Olimjon Salimovning rejissyorlik maktabiga xos bo'lgan bir necha ajoyib spektakllar bilan boyidi. Rejissyor tomonidan 2008-yil Chimkent shahrida joylashgan M.Shanin nomidagi Janubiy Qozog'iston Davlat drama teatrida D.Kinositoning "Tyrna ulpalary" ("Turna patlari") spektakli, 2010-yil Janubiy Qozog'iston viloyati o'zbek drama teatrida Molyerning "Uchar tabib" pyesasi asosida "Zo'rdan zo'r chiqsa..." spektakli, 2013-yil Dushanbe shahrida joylashgan Mayakovskiy nomidagi Tojikiston rus drama teatrida J.B.Molyerning "Tartyuf" spektakli, 2017-yil Qozog'iston davlat satira va yumor teatrida K.Goldonining "Ikki boyga bir malay" hamda M.Vohidov nomidagi Tojikiston davlat yoshlar teatrida Tunjer Jo'jen o'g'lining "Tarma" ("Ko'chki") spektakllari sahnalashtirildi.

V.Delmarning "Omon bo'lg'in, azizim" (Milliy akademik drama teatri, 2011-yil) asari orqali XX asr AQSH dramaturgiyasiga murojaat qilgan O.Salimov 2015-yil O'zbek

⁹¹ Abikayeva Gulnora. "Nachnem s ponidelnika". ("Dushanbadan boshlaymiz"). Respublika haftalik gazetasi. № 1-3. 18-24 yanvar 2008 -yil. Olmaota. Qozog'iston. Ruschadan tarjima.

akademik rus drama teatrida N.Saymonning “Ikkinchi avenyu mahbusi” pyesasini ham o‘zbek sahnasiga muvaffaqiyatli olib chiqdi.

Amerikalik dramaturg Vina Delmar asari asosida sahnalashtirgan “Omon bo‘lg’in, azizim” spektakli insoniy mehr va ota-ona qadri haqida chuqur falsafiy mushohadadir. Avval B.Yo‘ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan bu asarni O.Salimov zamonaviy hayot muammolari bilan bog‘lab, befarqlik va mehrsizlik illatini yoritgan holda yangicha talqin qilgan.

Spektaklning markazida ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi hissiy uzilish turadi. Bosh rollarni Yoqub Ahmedov (ota – Kuper Barg) va Sayyora Yunusova (ona – Lyusi) mahorat bilan ijro etgan. Ayniqsa, ularning sahnadagi tabiiy harakati va hissiy uyg‘unligi spektaklning asosiy dramatik kuchiga aylangan.

Rassom Tatyana Fadeyeva sahna bezagida temir yo‘l va poyezd obrazlari orqali hayot oqimi va vaqt o‘tkinchiligi ramzini yaratgan. Sevara Zunnunova liboslar orqali obrazlarning ichki dunyosini ochib bergan.

Spektakl musiqasi va yorug‘lik yechimlari sahna kechinmalariga mos uyg‘unlikda qo‘llanilgan. Finaldagi “so‘nggi vals” sahnasi ikki qalbning abadiy muhabbatini ramziy tarzda ifodalagan.

“Omon bo‘lg’in, azizim” – Olimjon Salimov rejissurasining badiiy va falsafiy yetuk namunasi bo‘lib, u tomoshabinda chuqur ruhiy ta’sir uyg‘otadi.

Olimjon Salimov rejissyorlik faoliyatining so‘nggi o‘n yilligiga nazar tashlar ekanmiz, shubhasiz, bu nafaqat ijodiy davomiylik, balki yanada baland cho‘qqilarni zabt etish davri ekanini tan olamiz. Rejissyorning yillar davomida orttirgan boy tajribasi va yuksak mahorati bu davrning salmog‘ini, zalvorini sezilarli darajada boyitmoqda. U sahnalashtirgan spektakllarida an’anaviy o‘zbek teatri zamonaviy uslublar va xalqaro tajribalar bilan shu qadar mustahkam uyg‘unlashdiki, bu o‘zbek teatr san’atining o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi. Har bir yangi sahnalashtiruvda rejissyor fikrining chuqurligi, janrlar sintezi va zamonaviy talqinlardagi dadillik yaqqol namoyon bo‘ldi.

Bu fikrlar nafaqat milliy dramaturgiyaga oid sahna asarlariga, balki xorijiy asarlar adaptatsiyasiga ham tegishlidir. “Uylanish” (N.Gogol, 2015), “Truffaldino – ikki boyning malayi” (K.Goldoni, O‘zbekiston davlat drama teatri, 2017), “Xushvaqt” (T.Murod, Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri, 2019), “Bog‘lasangiz bog‘lanay” (S.Zlotnikovning “Ayol oldiga kelgan erkak” pyesasi motivlari asosida, O‘zbekiston davlat drama teatri, 2021), “Zo‘rdan zo‘r chiqsa...” (J.B.Molyer “Uchar tabib” asari asosida, Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri, 2021), “Romeo va Julietta” (U.Shekspir, O‘zbekiston davlat drama teatri, 2022), “Xazina” (N.Dumbadze “Men, Buvim, Iliko va Illarion” romani asosida, O‘zbekiston davlat drama teatri, 2022), “Xasis”

(J.B.Molyer, O‘zbekiston davlat drama teatri, 2023), “Dala sayli” (F.Arrabbal “Pik-nik”, rejissyor Rasuljon Tog‘ayqulov bilan birgalikda, O‘zbekiston davlat drama teatri, 2024) kabi jahon durdonalari asosida sahnalashtirilgan bebaho spektakllar shular jumlasidandir.

Olimjon Salimov sahnalashtirgan “Truffaldino – ikki boyning malayi” spektakli K.Goldonining komediyasi asosida yaratilgan bo‘lib, u “del-arte komediyasi” (niqoblar komediyasi) janrining an‘anaviy belgilari va uslublarini o‘zida to‘liq mujassam etgan. Rejissyorning eng muhim yutug‘i – asarning janrini to‘g‘ri anglab, uni qat‘iyat bilan, aniq sahna vositalari orqali ifodalaganidadir.

Spektaklning sahnalashtiruvchi rassomi Laziz Yodgorov va liboslar dizayneri Dono G‘aniyevalar tomonidan ertakona, sayyor truppa muhiti yaratilgan.

Asar harakati T.Normatov (Truffaldino) boshchiligidagi aktyorlarning jonli, ritmik ijrosi bilan olib boriladi. Sahnadagi voqealar zanjiri tezkor tempda almashinadi, har bir epizod musiqiy va plastik yechimlar bilan uyg‘unlashgan.

Rejissyor Goldoni dramaturgiyasini “toza del-arte” uslubida sahnalashtirib, Pantalone (B.Mirmaksudov), Brigella (O‘zbekiston xalq artisti E.Nosirov), Doktor Lombardi (R.Ahmedov), Smaraldina (F.Meliboyeva) kabi an‘anaviy besh niqobni jonlantirgan. Bu esa o‘zbek teatrida ilk bor “niqoblar komediyasi”ning sof uslubda tiklanishiga olib keldi.

Baletmeyster M.Iskandarovaning raqslari va musiqiy bezaklar spektaklga bayramona ruh bag‘ishlagan. Komediya holatlar bilan bir qatorda lirik sahnalar ham noziklik bilan ochilgan, kulgi hech qachon maqsadsiz yoki sun‘iy tus olmagan.

Asar rejissyorlik topilmalari va aktyorlik mahorati uyg‘unligida yaratilgan bo‘lib, har bir obraz o‘z individualligini saqlagan holda jonli, tabiiy ifoda topgan. Natijada “Truffaldino – ikki boyning malayi” o‘zining quvnoq, hayotbaxsh ruhi, badiiy aniqligi va estetik didi bilan ajralib turgan, “del-arte komediyasi”ning milliy sahnadagi yorqin namunasi sifatida e’tirof etiladi.

Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatrida sahnalashtirilgan “Zo‘rdan zo‘r chiqsa” musiqali komediyasi musiqali teatr janri talablariga to‘liq javob beruvchi, so‘ngi yillardagi dramaturgiya va musiqaning uyg‘unligiga erishilgan asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Spektaklda musiqa dramatik harakatdan ajralmagan, balki obrazlarning ichki holatini, kayfiyati va xarakterini ochishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Kompozitor Oydin Abdullayeva har bir ariya va duetni qahramonlarning ruhiy kechinmalaridan kelib chiqib yaratgan, bu esa musiqani badiiy obrazning uzviy qismiga aylantirgan.

Rejissyor O.Salimov aktyorlarning kuylash jarayonini sahnadagi harakatlar bilan uyg‘unlashtirgan – ariyalar va qo‘shiqlar turg‘un holatda emas, balki dinamik mizansena asosida ijro etiladi. Har bir musiqiy epizod, jumladan, Qiz, Yigit, Mavlono, Holavachcha,

Mavlud, Kuyov kabi obrazlar ishtirokida dramaturgik harakatni davom ettirib, syujet rivojiga xizmat qiladi.

Balet elementlari va xor sahnalari orqali harakat intensivligi ta'minlangan, har bir lavha umumiy musiqiy ritm va milliy ohang bilan bog'langan. Musiqa asosan o'zbek xalq kuylariga yaqin, xalqona komediyaviy ruhda yozilgan bo'lib, spektaklning quvnoq, hayotiy ohangini kuchaytiradi. Natijada "Zo'rdan zo'r chiqsa" spektakli rejissyor, dramaturg, kompozitor va aktyorlar ijodining uyg'un mahsuli sifatida musiqali teatrning badiiy yaxlitligi va ifodaviy imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon etgan.

Olimjon Salimov tomonidan O'zbekiston Davlat drama teatrida sahnalashtirilgan "Romeo va Julietta" spektakli ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirning mashhur fojiasiga sodiq qolgan holda, asarning an'anaviy sahnaviy talqinida yaratildi. Rejissyor zamonaviy shakl yoki tashqi yangilik ortidan quvmay, asarning g'oyaviy mohiyatini – muhabbat va inson erkinligi mavzusini markazga qo'ydi.

Salimov spektakl konsepsiyasini "erk" tushunchasi atrofida quradi. Uning talqinida Veronadagi yosh sevishtganlar fojiasi inson erkinligini cheklovchi ijtimoiy, sulolaviy va tabaqaviy an'analarga qarshi isyondir. Rejissyor bu orqali Shekspir asarini zamonaviy inson erki, muhabbatdagi tanlov huquqi va ma'naviy ozodlik g'oyalariga bog'laydi.

Spektaklda qizil rang asosiy badiiy ramz sifatida ishlatilgan. Bu rang zo'ravonlik, qon va nafrat muhitining timsoli bo'lib, rejissyor fikricha, "odam odamning dushmani bo'lgan joyda yuksak sevgi yashay olmaydi". Shu orqali u insoniyatda davom etayotgan qonli mojarolar va zo'ravonlik muhitiga nisbatan keskin tanqid bildiradi.

Sahnadagi har bir epizodda zo'ravonlik va sevgi, hayot va o'lim, shafqatsizlik va poklik o'rtasidagi ziddiyat kuchli dramatik ritm bilan ifodalangan. Ayniqsa, Romeo va Tybalt to'qnashuvi hamda Romeo va Juliettaning so'nggi sahnasi tomoshabinga chuqur hissiy ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy yechimlarda sahna dekoratsiyasi va yoritish vositalari minimal, ammo ramziy ma'noga ega. Yorug'likning to'q qizil tushlari sevgi va fojia o'rtasidagi ruhiy taranglikni kuchaytirgan. Kostyumlarda ham an'anaviy shakl saqlanib, o'rta asr Italiya muhitining shartli timsollari yaratilgan.

Spektaklda aktyorlik ansambli ham rejissyor konsepsiyasini chuqur his etgani yaqqol seziladi. Romeo (J.Sattorov) va Julietta (S.Shukurova) ijrosida sadoqat, isyon va pok sevgi tuyg'ulari tabiiy ifoda topgan. Ayniqsa, Romeo obrazining ichki kechinmalari – qo'rquv, pushaymonlik va o'zini "taqdir masxarabosi" sifatida anglash fojiani yanada chuqurlashtiradi va qahramonga nisbatan achinish bilan bir vaqtda hamdardlik tuyg'usini ham uyg'otadi.

Sahnadagi estetik uyg‘unlik, musiqiy bezaklar va plastika uyg‘unligi tomoshabinda poklanish, tozalanish, katarsis hissini yaratadi. Ayniqsa, sevishtganlarning balkon sahnasi va yakuniy o‘lim lavhalari badiiy go‘zallik va insoniy iztirob uyg‘unligini namoyon etadi.

Qisqacha aytganda, “Romeo va Julietta” spektakli Olimjon Salimov talqinida Shekspir asarining milliy sahnadagi falsafiy qayta tug‘ilishi sifatida e’tirof etiladi. Unda rejissyor zo‘ravonlik va qonga to‘la dunyoda sevgi, ezgulik va insoniy erkinlik uchun kurash zarurligini o‘ziga xos badiiy ifoda bilan ochib bergan.

Xulosa qilib aytganda, Olimjon Salimovning sahna talqinlari o‘zbek teatrida xorijiy dramaturgiyani yangicha badiiy ko‘rinishda namoyon etdi. U jahon adabiyotining turli janr va uslublarini milliy sahna madaniyatiga moslashtirib, o‘zbek aktyorlik maktabini yangi izlanishlarga undadi. Rejissyorning ijodiy yondashuvida sahnaviy ifoda, ritm, plastika va ramziy tafakkur uyg‘unligi ustuvor o‘rin tutadi. Uning spektakllari “niqoblar komediyasi”, ertak dramasi yoki psixologik sahna asari bo‘lishidan qat’i nazar tomoshabinda estetik zavq, hayajon va mushohada uyg‘otadi. Natijada Olimjon Salimov ijodi o‘zbek teatrining milliy an‘analari va jahon sahna tajribasini birlashtirgan yirik badiiy hodisa sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Rejissyor Olimjon Salimov”. “SAN’AT” jurnali nashriyoti. – T.:2021.
2. Salimov Olimjon. “Kasbim rejissyor”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: 2009.
3. Boltaboyeva N. “Turna patlarini ko‘rib...”. Teatr jurnali. 2002/3/29-bet.
4. Abikayeva Gulnora. “Nachnem s ponidelnika”. (“Dushanbadan boshlaymiz”). Respublika haftalik gazetasi. № 1-3. 18-24 yanvar 2008 -yil. Olmaota. Qozog‘iston. Ruschadan tarjima.